



AN'ANAVIY VA ISLOMIY BANKLARNING INTEGRATSIYASI: JAHON MOLIYA BOZORIDAGI IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Eshimov Alisher Dusmurodovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
ORCID 0009-0006-8384-578X

2120101a@mail.ru

Dadabayev Umidjon Abdusamat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
ORCID: 0000-0001-7143-2351

u.dadabayev@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada an'anaviy va islomiy banklar faoliyatining integratsiyasi jarayonlari, ularning global moliya bozoriga ta'siri va ushbu sohadagi imkoniyatlar hamda muammolar o'rganiladi. Tadqiqotda an'anaviy banklar tarkibida "Islom darchalari"ni tashkil etishning iqtisodiy samaradorligi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi roli va moliya bozorini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu integratsiyaning rivojlanayotgan mamlakatlarda bank tizimi barqarorligi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi ahamiyati empirik va nazariy yondashuvlar asosida yoritiladi. Maqola xalqaro moliyaviy hamkorlik va islomiy moliyaning jahon moliya bozorida o'rnini mustahkamlash istiqbollarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: alternativ moliya bozori, banklar integratsiyasi, islom darchalari, an'anaviy banklar, moliyaviy inklyuzivlik, bank sektori barqarorligi, xorijiy investitsiyalar.

ИНТЕГРАЦИЯ ТРАДИЦИОННЫХ И ИСЛАМСКИХ БАНКОВ: ВОЗМОЖНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ НА МИРОВОМ ФИНАНСОВОМ РЫНКЕ

Эшимов Алишер Дусмurodovich

Научно-исследовательский центр «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете

Дадабаев Умиджон Абдусамат угли

Научно-исследовательский центр «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. В данной статье рассматриваются интеграционные процессы традиционных и исламских банков, их влияние на мировой финансовый рынок, а также возможности и проблемы в этой области. В исследовании анализируется экономическая эффективность организации «исламских окон» внутри традиционных банков, их роль в обеспечении финансовой стабильности и возможности диверсификации финансового рынка. Также на основе эмпирических и теоретических подходов подчеркивается важность данной интеграции в стабильности банковской системы развивающихся стран и привлечении иностранных инвестиций. В статье раскрываются перспективы международного финансового сотрудничества и укрепления позиций исламских финансов на мировом финансовом рынке.

Ключевые слова: альтернативный финансовый рынок, интеграция банков, исламские филиалы, традиционные банки, финансовая доступность, стабильность банковского сектора, иностранные инвестиции.

INTEGRATION OF TRADITIONAL AND ISLAMIC BANKS: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES IN THE GLOBAL FINANCIAL MARKET

Eshimov Alisher Dusmurodovich

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" at Tashkent State University of Economics

Dadabaev Umidjon Abdusamat ugli

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" at Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article examines the processes of integration of traditional and Islamic banking activities, their impact on the global financial market, and the opportunities and challenges in this area. The study analyzes the economic efficiency of the creation of "Islamic windows" within traditional banks, their role in ensuring financial stability, and the possibilities of diversifying the financial market. It also highlights the importance of this integration in the stability of the banking system in developing countries and attracting foreign investment based on empirical and theoretical approaches. The article reveals the prospects for international financial cooperation and strengthening the position of Islamic finance in the global financial market.*

Keywords: *alternative financial market, bank integration, Islamic banks, traditional banks, financial inclusion, banking sector stability, foreign investments.*

Kirish.

Jahon moliya bozorlarida so'nggi yillarda islomiy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab sezilarli darajada oshib bormoqda. Shariat tamoyillariga asoslangan bu xizmatlar nafaqat musulmon aholisi ko'p bo'lgan hududlarda, balki boshqa mamlakatlarda ham qiziqish uyg'otmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy banklar tarkibida "Islom darchalari"ni tashkil etish orqali islomiy moliya bozorini kengaytirish tendensiyasi paydo bo'lmoqda. Ushbu jarayon nafaqat moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, balki global moliya bozorida yangi imkoniyatlar yaratish va barqaror rivojlanishga hissa qo'shish uchun katta ahamiyatga ega.

An'anaviy va islomiy banklar faoliyatining integratsiyasi moliya bozorining diversifikatsiyasi, bank sektorining raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro moliyaviy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ammo bu jarayon iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash va huquqiy-me'yoriy muammolarni hal qilishda muhim qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada mazkur muammolar va imkoniyatlar aniq tahlil qilinadi hamda islomiy moliyaviy xizmatlarning global moliya bozoridagi o'rni va istiqbollari yoritiladi.

Mazkur tadqiqot xalqaro moliya tizimining integratsiyalashuv jarayonida islomiy moliyaning ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi va rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu modelning iqtisodiy ta'sirini baholashga yordam beradi.

Ma'lumki, dunyoda islom banklari soni, shuningdek tijorat banklari tarkibida ochilgan islom darchalari soni ham yildan-yilga ortib bormoqda. Bu, albatta, islom moliyasi lamidagi moliyaviy qiymatlar tobora ortib borayotganidan darak beradi. Tadqiqotda dunyoning islom banklari aktivlari dinamikasi va islom banklari soni va tijorat banklarida ochilgan islom darchalari o'rtasidagi munosabat o'rgnildi.

Adabiyotlar sharhi.

An'anaviy va islomiy banklarning integratsiyasi bo'yicha adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu jarayon moliyaviy barqarorlikni oshirish va bozorni diversifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy integratsiya global hamkorlikni kuchaytirishning muhim omili hisoblanadi. Iqtisodchi olimlar (Ahmad, 2017) o'z tadqiqotida islomiy va an'anaviy banklar

o'rtasidagi hamkorlikning moliyaviy tizim barqarorligiga ta'sirini o'rgangan. U ushbu hamkorlikning moliyaviy xizmatlar innovatsiyasini oshirishdagi rolini ta'kidlagan.

Shuningdek, dunyoning bir qator ilg'or mamlakatlari iqtisodchi olimlari (Iqbal va Mirakhor, 2011) moliyaviy sektorni diversifikatsiya qilishda islomiy moliya xizmatlarining rolini o'rganadi. Ular an'anaviy banklar tarkibida islomiy moliya xizmatlarini joriy etish raqobatbardoshlikni oshirishi va yangi bozorlarni ochishi mumkinligini ta'kidlashgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy xizmatlarni kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda islomiy moliyaning o'rni juda muhimdir. Bruce Hearn ko'pincha rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy tizim va institutsional muhitni o'rganishga e'tibor qaratadi. Moliyaviy barqarorlik, korporativ samaradorlik va investitsiya modellarini tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi britaniyalik iqtisodchi va tadqiqotchi olimlar Bruce Hearn va Jenifer Piesse islomiy moliyaviy xizmatlarning rivojlanayotgan mamlakatlarda inklyuziv moliya tizimini shakllantirishdagi ahamiyatini o'rganadi (Hearn va Piesse, 2010).

Shuningdek, bir qator olimlar islomiy banklar va an'anaviy banklar inqirozga qanday munosabatda bo'lishlarini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy banklarning aktivlarga asoslangan moliyaviy modeli moliyaviy inqiroz davrida barqarorlikni ta'minlaydi (Kammer va boshq., 2015).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot metodologiyasi an'anaviy va islomiy banklarning integratsiyasi jarayonlarini tahlil qilishda mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy yondashuvlariga asoslanadi. Ayniqsa, "Islom darchalari"ning iqtisodiy samaradorligi, moliyaviy barqarorlikka qo'shgan hissasi va global moliya bozorida ushbu integratsiyaning roli kabi jihatlar alohida o'rganiladi.

Tadqiqotning uslubiy asosini strukturaviy-funksional yondashuv va islom iqtisodiyoti va moliyasidagi neoliberal nazariy tamoyillar tashkil etadi. Strukturaviy-funksional yondashuv yordamida "islomiy darchalar"ning an'anaviy banklar faoliyatiga ta'siri va bu jarayonning moliyaviy tizimni barqarorlashtirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Neoliberal yondashuv orqali esa integratsiyaning bozor mexanizmlariga moslashuvchanligi va xalqaro moliyaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi istiqbollari o'rganiladi.


Tadqiqot jarayonida nazariy yondashuvlar empirik dalillar bilan birlashtiriladi. Bu orqali rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi va xalqaro amaliyotga asoslangan holda an'anaviy va islomiy banklar faoliyatining integratsiyasi bo'yicha iqtisodiy va institutsional tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu yondashuv tadqiqot mavzusini kompleks yoritishga va global moliya bozorida ushbu integratsiyaning imkoniyatlari va muammolarini chuqur tahlil qilishga imkon yaratadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Zamonaviy global moliya bozorida islomiy moliyaning ahamiyati ortib bormoqda. Shariat tamoyillariga asoslangan ushbu moliyaviy model nafaqat musulmon aholisi ko'p bo'lgan hududlarda, balki boshqa mintaqalarda ham qiziqish uyg'otmoqda. Islomiy moliya, xususan, "islomiy darchalar", moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

!- rasm dunyo moliya bozorida islomiy moliyaning geografik taqsimotini aks ettiradi. Bu ko'rsatkichlar ushbu mintaqalarda islomiy moliya tamoyillariga asoslangan xizmatlarga yuqori talab mavjudligini va iqtisodiy faoliyatning yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur tendensiyani O'zbekistonda ham davom ettirish uchun avvalo islom darchalarini joriy etishga to'g'ri keldi. Odatda, biron mamlakatda islom moliya tizimi bo'yicha qonunchilik mavjud bo'lmaganda an'anaviy banklar va sug'urta korxonalari qaramog'ida islom darchalari tashkil etiladi. Chunki, islom darchalari ma'lum mamlakatning huquqiy tizimi, mavjud qonunlari asosida chegaralangan miqdordagi ayrim xizmatlar va moliyaviy mahsulotlarni, an'anaviy bank yoki sug'urta korxonasining tarkibiy qismi mahsuloti sifatida taklif etadi (Eshimov, 2024).




1-rasm. 2021-yilda dunyo bo'ylab islom banklari aktivlari qiymati (mlrd. AQSh dollarida) (ICD and Refinitiv, 2022)

Har tomonlama mukammal islom bankchiligi xizmatlari va moliyaviy mahsulotlari esa, odatda, o'sha mamlakatda mazkur sohaga tegishli qonunlar ishlab chiqilganidan keyin ommaga taqdim etiladi. Shu nuqtai nazardan, ko'pincha, islom darchalari tashkil qilishdan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- 1) mazkur o'lkada xalqning islom moliya mahsulotlariga bo'lgan talabi qanday o'zi, o'rganish;
- 2) ko'zda tutilmagan ortiqcha xarajatlarsiz banklarning mavjud infratuzilmalari – binolar, faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar va boshqalar orqali muqobil moliya xizmatlarini taklif etish;
- 3) shuningdek, ochilgan islom darchalari faoliyatini tadqiq etish va chuqur tahlil qilish orqali, mamlakatda islom moliyasi va bankchiligiga oid qonun ishlab chiqish nuqtai nazardan taklif va tavsiyalar berish;
- 4) kichik biznes vakillari, hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali ularning mamlakat iqtisodiyotidagi ishtirokini oshirish, shuningdek, islom darchasi faoliyati natijasi tahlili asosida banklarning yaqin kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish;

Moliyalashtirish/investitsiya


Omonat/investitsiya



2-rasm. Islom banklarining ishlash mexanizmi

Manba: muallif tomonidan ishlandi.

Yuqoridagi 2-rasmda islom banklarining bank va investorlar o'rtasida omonatlar, investitsiyalar bilan, shuningdek bank va mijoz o'rtasida moliyalashtirish yoki investitsiyalash qanday operatsiyalar orqali amalga oshirilishi tasvirlangan. An'anaviy banklardan farqli o'laroq (3-rasm) islom banklari faqatgina foiz asosida ish yuritmaydi, balki bank va investor o'zaro vadia, vakala, mudoraba shartlari yoki qarz asosida munosabatga kirishadi. Mijozga esa murobaha, salam, ijara, istisna, mudoraba va mushoraka shartlari asosida munosabatga kirishadi. Tadqiqotning birinchi bobida bu nazariyalar keng yoritilgani bois, islom banklari sherikchilik va foydani taqsimlash printsipligiga, unga ters ravishda an'anaviy banklar faqatgina foiz asosida moliyaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishi ikkala bank tizimlari uchun berilgan eng umumiy ta'rif deyish mumkin (Eshimov, 2024).




3-rasm. An'anaviy banklarning ishlash mexanizmi

Manba: muallif tomonidan ishlandi.

Yuqoridagi rasmda esa an'anaviy banklarning ishlash mexanizmi tasvirlangan, unga ko'ra an'anaviy banklar investorlar va mijozlar bilan faqat foiz asosida ishlashi tushuniladi.

Tijorat bankidagi islomiy darcha deganda islom tamoyillari va shariat qonunlariga muvofiq faoliyat yurituvchi an'anaviy bank tarkibidagi ajratilgan yoki ixtisoslashtirilgan bank bo'linmasi tushuniladi. Islom moliyasida shariatga rioya qilish muhim va islomiy darchalar an'anaviy bank tizimi doirasida faoliyat yuritishda islom tamoyillariga amal qiladigan moliyaviy xizmatlarni taklif qilish uchun joriy etiladi.

Islomiy darchalarni joriy etilgandan so'ng ularning faoliyati tartibga solib turiladi, shuningdek nazorat ostida bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarda tartibga soluvchi organlar shariat tamoyillariga rioya qilishni ta'minlash uchun islomiy moliya uchun asos yaratiladi. Bunday normativ ko'rsatkichlar kapitalning yetarliligi, risklarni boshqarish, savdo shartlarini va faoliyat yo'nalishini oshkora, shaffof amalga oshirish va shariat kengashi a'zolarining malakasi kabi jihatlarni qamrab olishi mumkin. Quyidagi 4-rasmda an'anaviy banklarda islom darchalari ochilganda erishiladigan afzalliklar tasvirlangan.



4-rasm. Banklarda islom darchalari ochilganda erishiladigan afzalliklar


Manba: muallif tomonidan ishlandi.

Islomiy darchaga ega banklar shariatga mos moliyaviy xizmatlarni qidirayotgan mijozlarni jalb qilish uchun maqsadli marketing bilan shug'ullanadi. Islomiy darchalar, shuningdek, islomiy moliya xizmatlarini afzal ko'rgan jismoniy shaxslar va korxonalariga xizmatlar ko'rsatish orqali moliyaviy inklyuziyaga hissa qo'shadi (Eshimov, 2023).

Tijorat banklarida islomiy darchalar an'anaviy tijorat banklari tarkibiga islom banki xizmatlarini kiritish mazmunini anglatadi. Ushbu oynalar tijorat banklariga an'anaviy takliflar bilan bir qatorda, islom moliya mahsulotlar va xizmatlarini, taklif qilish imkonini beradi. Islomiy darchalardan foydalanish turli mamlakatlarda, jumladan, sobiq sovet mamlakatlarida (Abdullah va Suya, 2023), Iroqda (Almira, 2022) va Efiopiyada (Mohamed va boshq., 2019) o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlar islom darchalarda risklarni boshqarish amaliyotlari, islom darchalarining paydo bo'lishi va evolyutsiyasi, islom darchalari xizmatlari narxi va texnik samaradorligi kabi turli jihatlariga qaratilgan. Tadqiqotlarda ushbu modelning afzalliklari va kamchiliklari yoritib beriladi, islom darchalarini ishga tushirish bo'yicha tavsiyalar beriladi hamda tijorat banklaridagi faoliyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, islom darchalari yangi biznes imkoniyatlarini taqdim etishi va tijorat banki sektorida islom moliyasi aktivlarining o'sishiga hissa qo'shishi mumkin.

Har bir bankning kredit boshqaruvi bo'yicha o'ziga xos strategiyasi va tartiblari mavjud bo'lib, ular mijozlarga o'z kreditlari, moliyalashtirishlari va aktivlarini ta'minlashga yordam berish hamda ularni shariat qoidalariga muvofiq bankrotlik va to'lovga layoqatsizlikdan himoya qilishga qaratilgan (Muhammad va boshq., 2020). Barcha turdagi banklar mijozlari texnologiyaning xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va mijozlar xatti-harakatlarini ijobiy o'zgartirishga sezilarli ta'sirini tan oladilar.

To'liq huquqli islom banklari o'z mijozlari tomonidan an'anaviy banklardagi islom banking oynalariga qaraganda ancha ijobiy qabul qilinadi. Shaffoflik, zararni va riskni bo'lishish va prognoz islom banklarini xizmat ko'rsatish sifati bo'yicha ajratib turadigan eng muhim konstruktsiyalardir.



5-rasm. 2006-2022 yillarda Islom banklari aktivlarining samaradorlik darajasi (foizda)

Yuqoridagi grafikda islom banklarining muhim bo'lgan ko'rsatkichlaridan biri ROA (Return on Assets) – bank aktivlarining qaytish nisbati, ya'ni samaradorligi aks ettirilgan. Ma'lumki bu ko'rsatkich soliqlar chegirib tashlanganidan keyingi foydaning bank jami aktivlari qiymatiga bo'lib, so'ng uni 100 (%) ga ko'paytirib hosil qilinadi:

$$ROA = \frac{\text{soliqdan keyingi foyda}}{\text{Jami aktivlar}} * 100\%$$

Mazkur ko'rsatkich islom banklarida 2010-yilga qadar manfiy ko'rinishga ega bo'lib, 2011-yil 0.4 foizdan 2022-yilga kelib 2.25 foizga o'sgan. Shuningdek, endigina faoliyat boshlab ildiz otayotgan islom banklari erishgan bu natija, necha asrlardan buyon ishlab kelayotgan an'anaviy banklar samaradorligiga yaqin kelib qoldi.

Xulosa va takliflar.

An'anaviy va islomiy banklarning integratsiyasi jahon moliya bozorida yangi imkoniyatlar yaratishda va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Ko'rfaz hamkorlik kengashi va O'rta Sharq va Shimoliy Afrika hududlari islomiy moliyaning eng rivojlangan markazlari hisoblanadi. Shuningdek, "Islom darchalari" an'anaviy banklar faoliyatini diversifikatsiya qilishga va moliyaviy inklyuzivlikni oshirishga imkon beradi. Yevropa va Janubiy Osiyo kabi mintaqalarda ushbu xizmatlarning rivoji sekin bo'lsa-da, bozor talabi va imkoniyatlari mavjud. Rivojlanayotgan mamlakatlarda "islomiy darchalar"ni tashkil qilish xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda samarali mexanizm hisoblanadi.

O'rganilgan tadqiqot doirasida quyidagi takliflarni ilgari surilish mumkin:

- Islom moliya xizmatlarini kengaytirish uchun milliy darajada huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda "islom darchalari"ni joriy etishda muhim ahamiyatga ega;
- Islom moliyasining afzalliklari haqida jamoatchilikni xabardor qilish va moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish;
- Islomiy bank xizmatlarini raqamlashtirish va fintech texnologiyalarini jalb qilish orqali mijozlar bazasini kengaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadga muvofiqdir;
- Islomiy moliyaviy xizmatlarni xalqaro miqyosda kengaytirish uchun rivojlangan davlatlarning tajribasidan foydalanish va moliyaviy hamkorlikni kuchaytirish lozim;
- Har bir hududda mijozlarning talabi va ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish orqali islomiy moliyaviy mahsulotlarni moslashtirish zarur.

Yuqoridagi takliflar islomiy moliyaning jahon moliya bozorida ahamiyatini oshirishga va uning rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning bilan birgalikda, bu yondashuvlar moliyaviy inklyuzivlikni kuchaytirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga imkon beradi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Abdullah, N. and Suya, Sh. (2023) *Evaluation of Financial Risk Management in Iraqi Banks: Comparison Study of Islamic Banks and Commercial Banks*, *International Journal of Transformation in Business Management*, 13(02), pp. 68–85.

Ahmad, A. (2017) *Islamic and conventional banking integration: A pathway to financial stability and innovation*, *Journal of Financial Regulation*, 3(2), pp. 200–215.

Chenguel, M.B., Derbali, A. and Jouiro, M. (2019) *Installing Islamic banking windows in conventional bank: Effects on performance*.

Eshimov, A. (2023) *O'zbekistonda yangi iqtisodiy islohotlar sharoitida ziyorat turizmini rivojlantirish: muammolar va istiqbollari*, *Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*. Toshkent: O'zXIA, pp. 193-196.

Eshimov, A. (2024) *Barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda moliya va sug'urta bozorlari rivojlanishining xususiyatlari: muammo va yechimlar*, *Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami*. Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti, pp. 365-369.

Eshimov, A. (2024) *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy jurnali*, 2(2), pp. 226-233.

Hearn, B. and Piesse, J. (2010) *'Barriers to the development of Islamic finance: Evidence from emerging markets*, *Journal of Banking & Finance*, 34(6), pp. 1255–1265.

ICD and Refinitiv (2022) *Islamic Finance Development Report 2022: Embracing Change*. p. 31.

Iqbal, Z. and Mirakhor, A. (2011) *An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice*. 2nd edn. Singapore: John Wiley & Sons.

Kammer, A., Norat, M., Pinon, M. and Prasad, A. (2015) *Islamic finance: Opportunities, challenges, and policy options*, IMF Staff Discussion Notes, 15(5).

Muhammad, N., Alwi, S.F. and Muhammad, N. (2020) *Credit Management in Full-Fledged Islamic Bank and Islamic Banking Window: Towards Achieving Maqasid Al-Shariah*, International Journal of Financial Research.

Nagimova, A. (2022) *Islamic windows: Case of Malaysia and lessons for the post-Soviet countries*.